

**“XX–XXI ASR BOSHLARIDA XORAZM HUNARMANDCHILIGI:  
TARIXIY-ETNOLOGIK JARAYONLAR VA  
TRANSFARMATSIYALAR”**

**Xudaybergenov Hayitboy Satimovich**

*Urganch davlat tibbiyot instituti, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i “Ijtimoiy fanlar”  
kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annatsiya.** *Mazkur maqolada Xorazm vohasidagi an‘anaviy hunarmandchilik nomoddiy madaniy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida etnologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hunarmandchilikning nafaqat madaniy qadriyat, balki ijtimoiy-iqtisodiy fenomen sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Jumladan, hunarmandchilikning an‘anaviy bilimlarni avloddan-avlodga uzatishdagi o‘rni, milliy identifikatsiyani shakllantirishdagi roli va jamiyat barqarorligini ta‘minlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, globallasuv sharoitida hunarmandchilikning transformatsiya jarayonlari, turizm, bozor munosabatlari va rakamlashtirish bilan bog‘liq o‘zgarishlar tahlil qilingan. Xorazm misolida an‘ana va innovatsiya uyg‘unligi asosida hunarmandchilikni rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari hududiy madaniy merosni saqlash va uni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimga integratsiya qilish masalalarida muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Аннотация.** *В данной статье традиционное ремесленничество Хорезма рассматривается как важная часть нематериального культурного наследия с позиций этнологического анализа. Исследование раскрывает значение ремесленничества не только как культурной ценности, но и как социально-экономического феномена. Особое внимание уделено роли ремесленных традиций в передаче знаний между поколениями, формировании национальной идентичности и обеспечении социальной устойчивости общества. Также анализируются процессы трансформации ремесленничества в условиях глобализации, его связь с туризмом, рыночными отношениями и цифровизацией. На примере Хорезма показаны возможности гармоничного сочетания традиций и инноваций в развитии ремесленного сектора. Результаты исследования имеют важное значение для сохранения культурного наследия и его интеграции в современную социально-экономическую систему.*

**Abstract.** *This article examines the traditional crafts of Khorezm as an essential component of intangible cultural heritage from an ethnological perspective. The study highlights the significance of crafts not only as cultural values but also as a socio-economic phenomenon. Particular attention is paid to the role of craftsmanship in the*

*intergenerational transmission of knowledge, the formation of national identity, and the maintenance of social stability. Furthermore, the paper analyzes the transformation of traditional crafts in the context of globalization, including their interaction with tourism, market relations, and digitalization processes. Using the example of Khorezm, the study demonstrates the potential for harmonizing tradition and innovation in the development of the craft sector. The findings contribute to a deeper understanding of preserving cultural heritage while integrating it into modern socio-economic systems.*

**Kalit soʻzlar:** *Xorazm, hunarmandchilik, nomoddiy madaniy meros, etnologiya, transformatsiya, milliy identifikatsiya, turizm.*

**Ключевые слова:** *Хорезм, ремесленничество, нематериальное культурное наследие, этнология, трансформация, национальная идентичность, туризм.*

**Keywords:** *Khorezm, traditional crafts, intangible cultural heritage, ethnology, transformation, national identity, tourism.*

**Kirish:** Soʻnggi yillarda dunyo ilmiy jamoatchiligida anʼanaviy hunarmandchilikni nomoddiy madaniy merosning ajralmas qismi sifatida oʻrganishga boʻlgan qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu jarayon globallashuv sharoitida madaniy xilma-xillikni saqlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va insoniyatning noyob tajribalarini hujjatlashtirish zarurati bilan uzviy bogʻliqdir. Xususan, anʼanaviy hunarmandchilik faqat moddiy mahsulot ishlab chiqarish jarayoni sifatida emas, balki muayyan jamiyatning tarixi, ijtimoiy munosabatlari, dunyoqarashi va madaniy identifikatsiyasini ifoda etuvchi murakkab etnomadaniy tizim sifatida talqin qilinmoqda.

Markaziy Osiyo, jumladan Oʻzbekiston hududida hunarmandchilik qadimdan aholi turmush tarzining muhim tarkibiy qismi boʻlib kelgan. Ayniqsa, Xorazm vohasi oʻzining boy tarixiy-madaniy merosi va rang-barang hunarmandchilik anʼanalari bilan ajralib turadi. Kulolchilik, toʻqimachilik, yogʻoch oʻymakorligi, metalsozlik va zargarlik kabi hunar turlari nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarni qondirgan, balki ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarni shakllantirishda ham muhim oʻrin tutgan.

Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda milliy hunarmandchilikni qayta tiklash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Bu esa hunarmandchilikni zamonaviy iqtisodiy jarayonlarga moslashtirish, uning turizm, eksport va madaniy brendlashtirish bilan bogʻliq imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, anʼanaviy bilim va koʻnikmalarni saqlash, ustoz-shogird anʼanalarini davom ettirish ham dolzarb vazifa sifatida namoyon boʻlmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Xorazm hunarmandchiligini nomoddiy madaniy meros va ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayonlari kontekstida etnologik jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot anʼana va innovatsiya oʻrtasidagi

o‘zaro munosabatlarni ochib berish, shuningdek, hunarmandchilikning jamiyat barqarorligi va madaniy uzviylikni ta‘minlashdagi o‘rnini ilmiy asoslashga qaratilgan.

YUNESKOning 2003 yilda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasi"da [1] hunarmandchilik turlari insoniyatning noyob madaniy bilimi sifatida tan olingan va uning saqlanishi avlodlar orasidagi bilimlar uzluksizligini ta‘minlashga bog‘liqligi ta‘kidlangan:

Dunyo etnologiyasi va antropologiyasida hunarmandchilik faqat bir amaliy faoliyat emas, balki millatlar madaniyati, urf-odatlar, hayot tarzi va dunyoqarashining ajralmas tarkibiy qismi sifatida o‘rganilmoqda. Masalan, Richard Sennet o‘zining mashhur “The Craftsman” asarida [2] hunarmandlikni inson mehnati, shaxsiy kamolot va madaniy o‘zlik bilan bog‘laydi:

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlar va urf-odatlarga qaytish jarayonida hunarmandchilik faoliyati qayta tiklandi, davlat tomonidan rag‘batlantirildi. Xususan, so‘nggi yillarda madaniy merosni chuqur o‘rganish, saqlash va jahonga tanitishda «O‘zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an‘analarini to‘liq saqlab qolish, ko‘paytirish, milliy hunarmandchilikning to‘qimachilik-gilamdo‘zlik san‘atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida yoshlar, ayollar va kam ta‘minlangan oilalar bandligini ta‘minlash»[3] kabi qator vazifalar belgilab berilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston “Hunarmand” uyushmasi tomonidan hunarmandchilikning to‘qimachilik turi bo‘yicha xalqaro festivallar va ko‘rgazmalar Xorazm hunarmandlarining faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Glenn Adamson esa hunarmandchilikni nafaqat tarixiy, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida ham ko‘radi, shuningdek hozirgi zamonda hunarmandchilikning faqatgina madaniy emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyati borligini ta‘kidlaydi. Bu fikr Glenn Adamsonning 2021 yilda chop etilgan “Craft: An American History” nomli asarida ilgari surilgan [4] Adamson ushbu asarida hunarmandchilikni nafaqat an‘anaviy ko‘nikma va san‘at sifatida, balki jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlik, shaxsiy va guruh identifikatsiyasi, shuningdek, madaniy merosning uzviylikini ta‘minlovchi kuchli vosita sifatida baholaydi. U Amerika tarixi misolida hunarmandlarning ijtimoiy va siyosiy jarayonlardagi o‘rnini tahlil qiladi, bu tendensiya butun dunyo uchun ham universal hisoblanadi. Buning ahamiyati esa shundan iborat-ki, Xorazmdagi hunarmandchilikni o‘rganish nafaqat madaniy merosni hujjatlash, balki jamiyatni barqaror rivojlantirish, turizmni rivojlantirish, shaxsiy va milliy o‘zlikni saqlash bilan bog‘liq ekanini ilmiy jihatdan asoslashda yordam beradi.

Shuningdek, jahondagi ko‘plab mamlakatlarda (Italiya, Hindiston, Yaponiya, Turkiya va boshqalar) hunarmandchilik turizm, mahalliy iqtisodiyot, gender masalalari va ta‘lim tizimi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Bu jarayonda hunarmandchilik obyektlari nafaqat estetik qadriyat sifatida, balki ijtimoiy kapital, madaniy identifikatsiya va tarixiy xotira bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistonda ham hunarmandchilikning qayta rivojlanishi va uning turizm, eksport va madaniy brendlashtirish bilan bog‘liq jarayonlari jahon olimlari diqqat markaziga tushmoqda. Masalan, Z. Levin va G. Snesarev tomonidan tayyorlangan "Craft Revival in Central Asia" [5] nomli tadqiqotda shunday deyiladi: Markaziy Osiyodagi, jumladan O‘zbekistondagi an‘anaviy hunarmandchilik madaniy merosni asrash va iqtisodiy yangilanish (innovatsiya) nuqtasida joylashganini anglatadi. YA’ni bu ikki jarayon — madaniy qadriyatlarni saqlab qolish va zamonaviy iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish — hunarmandchilik orqali o‘zaro bog‘langan. Bu fikr shundan dalolat beradiki, Markaziy Osiyoda hunarmandchilik endi faqat an‘ana va madaniyatni saqlab qolishga xizmat qilmaydi, balki Mahalliy ishlab chiqarish va bozor mexanizmlariga moslashmoqda.

Jumladan;

Turizm va eksport salohiyatini kuchaytirmoqda

Ayollar va yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratmoqda

Hunarmandlarning shaxsiy brendlarni shakllantirish, raqamlashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish imkonini bermoqda

Bu — hunarmandchilikni himoya qilish va rivojlantirishni bir vaqtda amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Xususan, Xorazm viloyatida ham ushbu ikki tendensiya (an‘anani saqlash va iqtisodiy faollashuv) bir vaqtda kuzatiladi, bu esa mazkur ilmiy tadqiqotni zamonaviy jahon ilmiy tendensiyalariga mos holda tadqiq qilishni talab etadi.

Shunday ekan, Xorazm hunarmandchiligining o‘ziga xos tarixi, an‘anaviy bilimlari, turlari va ijtimoiy vazifalarini chuqur o‘rganish nafaqat mahalliy, balki xalqaro ilmiy doira uchun ham dolzarbdir. Ushbu mavzudagi tadqiqotlar xalqaro ilmiy muhitdagi umumiy tendensiyalar – madaniy merosni himoya qilish, an‘anaviy bilimlarni hujjatlash, insoniyatning noyob tajribalarini saqlash kabi dolzarb masalalarga javob beradi.

**Yuqoridagi manbalarga tayanib shuni aytshimiz mumkin-ki,** Markaziy Osiyo xalqlarining jumladan ўzbek hunarmandchilik an‘analari bo‘yicha xorijiy tadqiqotlarda alohida ўzbek hunarmandchiligi tarixini to‘liq yoritgan ishlar nisbatan kam uchraydi. Ammo yetakchi etnograf va madaniyatshunos olimlarning umumiy Markaziy Osiyo madaniyati haqidagi ishlarida Xorazm hunarmandchiligiga daxldor ma‘lumotlar alohida tahlil talab qiladi. Jumladan, E. Alvort (Edward Allworth) o‘zining “The Modern Uzbeks” nomli fundamental tadqiqotida o‘zbek xalqining madaniy va etnik o‘zgarishlarini tarixiy

jarayon kontekstida tahlil qilar ekan, Xorazm hunarmandchiligining XX asr davomida qanday shakllangani, ayniqsa sovet modernizatsiyasi sharoitida qanday transformatsiyaga uchraganini ko'rsatib o'tadi. U hunarmandchilikni milliy madaniyatning ifodasi sifatida baholab, uning tarkibidagi to'qimachilik, zargarlik, kulolchilik kabi an'anaviy turlari qanday rivojlanganini alohida ta'kidlaydi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Traditional craftsmanship is perhaps the most tangible manifestation of intangible cultural heritage... Its survival is closely linked to the transmission of knowledge and skills from one generation to the next" (*UNESCO, 2003*)

2. "Craftsmanship — the skill of making things well — stands as a counterbalance to mechanical efficiency and alienated labor" (*Sennett, 2008, p. 20*)

3. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017 yil 17 noyabrdagi PF-5242-sonli "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi. 2017 yil, 9 fevral.

4 "Craft is not only a cultural expression but also a powerful economic and political force — sustaining communities, transmitting heritage, and enabling identity" (*Adamson, 2021, p. 11*)

5. Zsuzsa Levin & Gennady "Snesarev Craft Revival in Central Asia: Cultural Heritage in Transition" CHCAP (International Information and Networking Centre for Intangible Cultural Heritage in the Asia-Pacific Region under the auspices of UNESCO) 2014, p. 57

